

**TURKISTON MUSULMONLARINING MUS’HAFNI O’ZLARIGA  
QAYTARISH TO‘G‘RISIDAGI TALABLARI**

**O‘rozqulov Oybek**

*O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi  
Islomshunoslik fakulteti, Islom tarixi va  
manbashunosligi yo‘nalishi 2- bosqich talabasi*

*Email: orazqulovoybek@1234*

*Tell: +998940982910*

**Anotatsiya:** Bu maqolada siz Rossiya bosqini natijasida Movarounnahrdan olib ketilgan Usmon mus’hafining asl joyi bo‘lgan turkistonga qaytarilishi va uni qaytarishda jonbozlik ko‘rsatga shaxslar haqida batafsil ma’lumot olishingiz mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Mus’hafi Usmoniy, Ufa, Shayxul Islom To‘raxon Maxdum Xo‘qandiy, “Islomiy jamiyat”.

Ufa Diniya nazorati qarorgohida Mus’hafi Usmoniy 1924 yilgacha saqlandi. Rusiya musulmonlari barcha joylardan kelib uni ziyorat qilayotganliklari xabari Turkiston mintaqasidagi Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona musulmonlariga tarqaldi. Turkiston ahlining tarixiy merosi bo‘lgan Mus’hafning asl joyi Samarqand shahri ekanligini ko‘pchilik bilar edi. Shunga qaramay Ufa Diniya nazorati ashoblari Mus’hafni o‘z qaramog‘ida saqlayotgani hamda uning vorislariga shukrona aytib, xursandliklarini baham ko‘rish haqida lom-mim, demaganlari Mus’hafni o‘zlarida olib qolish niyatida ekanliklarini ko‘rsatar edi. O‘zbekistonda o‘sha paytda ko‘zga ko‘ringan diniy arboblardan Shayxul Islom To‘raxon Maxdum Xo‘qandiy va boshqalar bilan Ufa diniya nazorati orasida ushbu masala yuzasidan yozishmalar davom etar va orada choparlar borib-kelib turar edi. Oxiri To‘raxon Maxdum o‘z hamrohlari bilan Moskva, Leningradga safar qilib, ikki oy mobaynida hukumat doiralariga qatnab, shu orada Lenin bilan uchrashdi va uni Mus’hafni O‘zbekistonga yuborish uchun farmon chiqarish zarur ekanligiga qanoatlantirdi. Shunday vaziyat davom etayotgan paytda Ufa shahrida qurultoy o‘tkazildi. Ushbu hodisa to‘g‘risida menga shayx Yusuf Jorulloh Al-Fanzovi shunday hikoya qilib berdi: “Qurultoyda Turkiston mintaqasidan 75 vakil qatnashdi. Mus’haf masalasiga kelganda o‘rtada janjal ko‘tarildi. Turkistonliklar tarafidan hatto baland ovozda: Mus’hafni qaytarmaslik o‘z birodarlari haqqiga zo‘ravonlikdan o‘zga narsa emas. Islomda bunday ishlar joiz emas! degan gaplar aytildi. Xullas, gap ko‘p bo‘lib oqibat janjal shovqingacha borib yetdi”. Inqilobdan keyin ta’sis topgan Toshkent va Sirdaryo viloyati musulmonlarining “Islomiy jamiyat”i O‘zbekiston musulmonlari nomidan hukumat doiralariga Mus’hafi Sharifni Turkistonga qaytarish to‘g‘risida murojaat qabul qildi. Ushbu murojaatni gazeta

jurnallarning ko‘pchiligi qo‘llab-quvvatlatdi.<sup>1</sup> Shuningdek, Turkistondagи tarixiy muzeylar va qadimiy osor-atiqalar ishi bo‘yicha tuzilgan komitet o‘zining 1922 yil 18 fevraldagi qaroriga asosan o‘sha yilning 15 martida Sovet hukumatiga Mus’hafni Turkiston Shayx Ismoil Maxdum jumhuriyatiga qaytarish to‘g‘risida talabnama topshirdi. Shundan so‘ng Mus’hafi Usmonni Turkistonga qaytarish to‘g‘risida 1923 yil 25 iyunda Oliy Sovet ijroqo‘mining qarori chiqdi. O‘sha paytlarda Ufa diniya nazorati Rusiyadagi barcha muslimonlarning umumiy markazi deb e’tibor qilinar edi. Shu mavqe’idan foydalanimus’hafni olib qolmoqchi bo‘lgan diniya nazorati, hukumat qabul qilgan qaror asosida, oxiri, bu ishga rozilik bildirdi. 1924 yil avgust oyida Islom jamiyati raisi Shayx Muhammadxo‘ja muftiy, Zahiriddin a’lam, hukumat vakili Saidqosim Xo‘jaev va boshqalar Ufa diniya nazoratiga borib, Mus’hafi Usmonni qabul qilib oldilar. Mus’hafni olib ketishda ularga Tataristonning ulug‘ ulamolaridan hazrat, shayx Rizouuddin Faxruddin, shayx Abdulloh Sulaymoniy, shayx Abdurrahmon va boshqalar hamrohlik qildilar. Mus’haf maxsus vagonga ehtirom bilan olib chiqildi. Muslimon askarlardan tuzilgan faxriy qoravul vagonning chor atrofida turib keldi. Barcha shaharlarga bu haqda telegrammalar yuborildi. Temir yo‘lning Toshkentgacha bo‘lgan masofasida poezd qaysi bekatlarda to‘xtashi barcha gazetalarda e’lon qilingan edi. Har bir bekatda yig‘ilgan erkagu ayol muslimonlar poezd uzoqdan ko‘rinishi bilan to to‘xtagunga qadar uni takbir tahlillar bilan kutib oldilar. Poezd to‘xtagach, xalq orasidagi eng mu’tabar kishilardan bir ikkitalariga maxsus vagonga chiqib Mus’hafni ziyorat etib tushishga izn beriladi. Atrofdagi muslimonlar Mus’hafni ko‘rib, maxsus sandiqni o‘pib, ziyorat qilib chiqqanlarning qo‘llarini o‘pib, boshlaridan tavof qiladilar. Ko‘plar vagonga qo‘llarini tekkizib, yuzlariga siypar edilar. Hatto, bu xabarni eshitganlar, ayniqsa, Qozog‘iston cho‘llarida yashovchi muslimonlar temir yo‘l yonlari bo‘ylab oq o‘tovlar tikib, poezdni bir necha kunlab kutganlar. Bayramona kiyimlardagi son-sanoqsiz otliqlar poezdning ikki tomonidan dashtu cho‘llar bo‘ylab uzoq-uzoq manzillargacha ot choptirib kuzatib qo‘yishardi. Duoga ko‘tarilgan qo‘llar, olqishlar dillarni larzaga soladi, har bir muslimon uchun bir umr bo‘yi eslagulik, unitilmas lahzalar edi. Rasululloh zamonlaridan qolgan merosga ehtirom shu qadar yuksak bo‘ldi. Poezd shunday izzat-ikromda Toshkent shahriga kirib keldi. Vokzal behisob muslimonlar bilan to‘lgan edi. Oq sallali, soqollari ko‘ksiga tushgan nuroniylamolar, tabarruk otaxonlar xaloyiq orasidan peshvoz chiqadilar. Atrofdagi ming-minglab yoshu qari, erkagu ayol muslimonlar ulardan nigohlarini uzmay qarab turardilar. Mus’hafi sharifni boshlari uzra ko‘tarib chiqqanlar ko‘zga ko‘ringandanoq, barcha bir ovozda «Allahu Akbar! Allahu Akbar!...» deya, takbir aytib yuboradi. Uning sadosi butun vokzalni larzaga keltiradi. Odamlar ko‘zidan quvonch yoshlari oqar, ular dil hayajonlarini bosa olmas edilar. Alloh taolonning Kalomi sharifiga nisbatan e’tiborning naqadar buyukligi shunday namoyon bo‘ldi. Mus’hafi

<sup>1</sup> “Kanzul-ulum val-lug‘ot (Ilm va tillar xazinasи).

Usmoniyning uzoq yillik, ya’ni 50 yillik g‘ariblik safaridan yana O’zbekiston zaminiga qaytarilishi voqeasi 1924 yil 18 avgustda nihoyasiga yetdi. Mus’hafni navbatma-navbat boshlarida ko‘targanlaricha Islom jamiyati qoshidagi katta jome’ masjidga (Ko‘kaldosh madrasasi yonida) keltirib, maxsus tayyorlangan xonaga qo‘ydilar. U yerda Mus’haf ziyyorati bir yilga yaqin davom etdi. Mus’hafning qaytib kelishi munosabati bilan bir necha anjumanlar o’tkazildi. Unda ulamolar, hukumat arboblari va qo‘shni o‘lkalardan kelgan vakillar qatnashib, tabrik so‘zлari so‘zladilar va yangi hukumatning xalq bilan bo‘ladigan aloqalari xususida ma’ruzalar qildilar. Mus’hafni qaytarishga sa’yi ko‘shish qilganlardan o‘sha paytda Turkiston “Islomiy sho‘ro jamiyati” ning raisi bo‘lgan va Sovet hukumati nazdida katta obro‘ga ega bo‘lgan shayxul-islom To‘raxon Maxdum Xo‘qandiy (1341 hijriy yilda Afg‘onistonda vafot etgan) bilan bir qatorda janob Murod qori Usmon Xo‘jaboy Toshkandiy o‘g‘lini ham zikr qilish Shayx Ismoil Maxdum lozim. Alloh ulardan rozi bo‘lsin, avlodlar ulardan doimo minnatdor.<sup>2</sup> Mus’hafi sharifning ko‘p marta o‘g‘irlilik va talon-tarojga duchor bo‘lgani, yana bu hol qaytarilishi mumkinligi va boshqa xatarlarni hisobga olib uni Toshkent shahridagi yodgorliklar muzeyiga ko‘chirishni ma’qul ko‘rildi. O’shandan beri u mutaxassislar tomonidan osor-atiqalarni saqlash qoidalariga to‘liq rioya qilingan holda, ko‘z qorachig‘iday temir sandiqda saqlandi.

Juda qadimiy asarlar jumlasiga mansub bo‘lganligidan 1926 yilda Mus’hafga alohida xona ajratildi. Muzeyga kelganlar Mus’hafi sharifni ko‘rishlari mumkin edi. 1956 yilda Pokistondan kelgan diniy delegatsiya, 1958 yilda Suriyadan kelgan delegatsiya va 1960 yilda Marokkodan kelgan delegatsiya va boshqalar Mus’hafni ziyyarat qilganlar. Alloh taolo ularga Usmon Mus’hafini ziyyarat qilishga muvaffaq etgani uchun shukronalar aytishar va o‘zlarining quvonchlarini izhor qilishar edi. Bu esa bizlarning Mus’hafga bo‘lgan muhabbatimizni, e’tiqodimizni va shodligimizni ziyyoda qilar edi. Mus’hafi sharif ba’zi bir diniy anjumanlar munosabati bilan yig‘ilish bo‘layotgan joylarga ziyyarat uchun olib kelinar edi. Keyinchalik mutaxassislar Mus’hafni havoga olib chiqilishi uning chirishini tezlatishi mumkinligi haqida ogohlantirib, uni tashqi muhit ta’sirlaridan muhofaza qiladigan kimyoviy moddalar yordamida, maxsus sandiqda saqlashni tavsiya qildilar. O’rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlarining diniy idorasi ta’sis topishi munosabati bilan 1943 yilda chaqirilgan qurultoyna Mus’hafi sharif olib kelindi va ziyyarat marosimi uyuشتirildi. Ikkinchisi marta uning ziyyaratiga 1948 yilda mazkur idoranining qurultoyi munosabati bilan muvaffaq bo‘lindi. Bir qancha yillar o‘tgandan so‘ng diniy idora fotografiya usuli bilan Mus’hafdan uch nusxa oldirdi. Ulardan biri Pokistonning sobiq prezidenti marshal Ayyubxonning diniy idora qarorgohiga 1964 yilda qilgan tashrifi munosabati bilan unga hadya qilindi. Ikkinchisi Hindistonning marhum sobiq prezidenti Zokir Husayn janoblariga tortiq qilindi. Diniy idoranining kutubxonasida (Bu kutubxonada nodir

---

<sup>2</sup> “Mir’ot” (Oyna). Jurnal. 11-12- sonlar. 1900 yil.

Mus’haflar, adabiy devonllar, qo‘lyozmalar va islomiy kitoblar mavjud) Peterburg arxeologiya instituti 1905 yilda oldirgan nusxalardan ikkitasi bor edi. Ulardan birini diniy idora Marokko podshohi Hasan II hazrati oliylariga tortiq qilgan. Bu nusxalar xorijga chiqishi natijasida Islom yurtlarida Usmon Mus’hafining bizda saqlanayotgani haqidagi xabar keng tarqaldi. Uning to‘g‘risida matbuotda maqolalar chiqa boshladi. Mus’hafi sharif sayohatchilar orasida ham mashhur bo‘ldi. Diniy idora bilan ko‘pgina xorijiy kutubxonalar, tashkilotlar, diniy va dunyoviy fan olimlari orasida yozishmalar bo‘lib o‘tdi. Ushbu munosabat bilan diniy idora Oliy hay’ati mazkur Mus’hafning tarixi to‘g‘risida bir kitob chop etishni va uni Islom olamidagi musulmon birodarlarimizga taqdim qilishni zarur, deb topdi. Chunki u Yer yuzining mag‘ribu mashrig‘idagi barcha Islom ahli uchun yagona manba’ va bebahoh yodgorlikdur. U haqda keng ommaga e’lon qilish vojibdur, chunki u musulmonlar faxrlanadigan va e’zozlaydigan eng aziz durdonadur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

- 1.Tuhfatun-nuzzor” (Sayohatchilar tuhfasi). — Ibn Batuta sayohatnomasi. “Zodin-Nil” matbaasi, Qohira. 1287 y.h.
- 2.Shayx Ismoil Maxdum “Toshkentdagi Usmon mus’hafi tarixi” “Movarounnahr” nashriyoti Toshkent-1995